

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDURASHIDOVA NIGORA ALISHEROVNA**

**BENCHMARKING ASOSIDA MAHALLIY AVTOMOBIL SANOATI  
KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH**

**08.00.11 – Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in  
economics sciences**

**Abdurashidova Nigora Alisherovna**

Benchmarking asosida mahalliy avtomobil sanoati korxonalarining  
raqobatbardoshligini oshirish..... 3

**Абдурашидова Нигора Алишеровна**

Повышение конкурентоспособности отечественных предприятий  
автомобильной промышленности на основе бенчмаркинга..... 25

**Abdurashidova Nigora Alisherovna**

Increasing the competitiveness of local automobile industry enterprises  
based on benchmarking..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 51

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDURASHIDOVA NIGORA ALISHEROVNA**

**BENCHMARKING ASOSIDA MAHALLIY AVTOMOBIL SANOATI  
KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH**

**08.00.11 – Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1819 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Karriyeva Yakutxon Karimovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kadirova Oydin Sarvarovna**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «14» 05 soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin 1439 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239 – 28 - 72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «01» 05 kuni tarqatildi.  
(2024 yil «30» 04 dagi 17 -raqamli reestr bayonnomasi).



**G.K. Abduraxmanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**O.D. Djurabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
koubi, i.f.d., dotsenti

**R.X. Karlibayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda avtomobil sanoatida marketing vositalaridan foydalanish, elektromobil, gibrid motorli hamda muqobil energiyada harakatlanuvchi dvigatellarni ishlab chiqish, avtomobil korxonalari raqobatbaroshligini narx va sifat siyosati asosida ta'minlash, avtosanoatda 6 sigma, Kaydzen, Kanban tizimlarini tatbiq etish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Jahonda 2022-yilda jami 85016,7 ming dona avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lsa, ularning 95,8 foizi engil avtomobillar hisoblanadi<sup>1</sup>.

Jahon miqyosida avtomobil sanoati korxonalari xarajatlarining katta qismi yuqori texnologiyali va ilmiy sig'imli ishlab chiqarishlarni tashkil etish, xalqaro bozorlarga mo'ljallangan marketing strategiyalarini ishlab chiqish, tarmoqda marketing strategiyalarini amalga oshirish, investitsion salohiyat va raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda. Avtomobil sanoati korxonalarida marketing samaradorligini baholash mezonlari, ularning shakllanish jarayonlari, bozorda hukmron kuchga ega iste'molchilarning xulq-atvori, naflilik darajasini o'lchash bilan bog'liq marketing izlanishlari xalqaro ilmiy tadqiqot institutlari va assotsiatsiyalari tomonidan samarali amalga oshirilmoqda hamda bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Avtomobilsozlik sanoatida benchmarkingdan foydalangan holda yangi yutuqlarga misol bo'lib, Ford tomonidan transport vositalarini yig'ish liniyasini joriy etish mumkin. Kompaniyaning mutaxassislari har bir mahsulotning afzalliklarini o'rganish va iste'molchilar afzal ko'rgan modellarni aniqlash maqsadida ko'plab avtomobil modellarini o'rganishgan. Har bir mezon uchun o'z sinfidagi eng yaxshi avtomobil aniqlangan, buning asosida eng yuqori stavkadan oshib o'tishga imkon beruvchi strategiya ishlab chiqilgan<sup>2</sup>.

O'zbekistonda avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish va mahsulotlar eksportini oshirish uchun raqobatdosh avtosanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni tizimli yo'lga qo'yish talab qilinadi. Ishlab chiqarishdan tortib, savdo va servis xizmatigacha bo'lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish, maqsadli va manzilli tashkil etish orqali sifatni nazorat qilish, iste'molchilarda mahsulotga ishonchni oshirish, shaffoflik masalalariga yuqori e'tibor qaratilishi talab etilmoqda. Avtomobilsozlik sanoatida mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish uchun benchmarkingdan foydalanish zarurligi, import mahsulotlar hajmi va tarkibini optimallashtirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash zarurati dissertatsiyaning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur masala 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash» bo'limining maqsadida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali

<sup>1</sup> <https://www.oica.net/category/production-statistics/2022-statistics/>

<sup>2</sup> Газиева Ж.С. Учебное пособие по дисциплине «Бенчмаркинг» для направления подготовки 38.03.06 Торговое дело – Махачкала: ДГУНХ, 2022. - 63 с.

ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish, «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filialining avtomobil ishlab chiqarish quvvatini 70 mingdan 100 mingtaga oshirish<sup>3</sup> muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu vazifalarning samarali bajarilishi O‘zbekistonda avtomobil sanoati korxonalarida benchmarking strategiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni, 2019-yil 18-iyuldagi PQ-4397-son «O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2018-yil 1-iyundagi PQ-3028-son «Avtomobil sanoatini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son «2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari va sohaga doir meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyat ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakillantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Benchmarkingning iqtisodiy mazmuni, mohiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar qatorida xorijiy olimlar D.Aaker, V.Kumar, F.Kotler, X.Xarrington, B.Andersen, K.Robert, G.H.Vatson, Dj.Traut, E.Rays<sup>4</sup> va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida mahsulot sifatini oshirish asosida korxonalar raqobatbardoshligini ta‘minlash, bozorda o‘z mavqegini saqlab turishga qaratilgan marketing strategiyalarini taklif qilganlar.

MDH iqtisodchi olimlari A.L.Gaponenko, A.P.Pankruxin, Yu.M.Baxramov, V.V.Gluxov, G.L.Azoyev, V.I.Aleshnikova, I.Ansoff, E.P.Golubkov korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida farmoni, <http://lex.uz//ru/docs/5841063>

<sup>4</sup> Аакер Д., Кумар В., Дэй Дж. Маркетинговые исследования. 8-е издание/Пер. с англ. под ред. Божук С. – СПб.: Питер, 2015. – 848 с.; Котлер Ф. Основы маркетинга. 5–е изд. / Ф. Котлер, А. Гари. – М.: Вильямс, 2016 – 752 с.; Котлер, Филип. Маркетинг. 4.0. Разворот от традиционного к цифровому: технологии продвижения в Интернете. /Филип Котлер, Хермаван Картаджайа, Айвен Сегиаван. – М.: Эксмо, 2021. – 224с.; Харрингтон Х.Дж., Харрингтон Дж.С. Бенчмаркинг в лучшем виде! / Пер. с англ. под ред. Б.Резниченко. – СПб.: Питер, 2004. – 176 с. ил.; Андерсен Бьёрн. Бизнес-процессы. Инструменты совершенствования /Пер. с англ. С.В. Ариничева /Науч. ред. Ю.П. Адлер. – М.: РИА «Стандарты и качество», 2003. - 272 с, илл. - (Серия «Практический менеджмент»). ISBN 5-94938-012-6; 54. Кэмп Роберт С. Легальный промышленный шпионаж: бенчмаркинг бизнес-процессов: технологии поиска и внедрение лучших методов работы ваших конкурентов / Пер. с англ. О.В. Теплих. – Днепропетровск: Баланс-Клуб, 2004. — 395 с.; Грегори Х. Ватсон Стратегический бенчмаркинг стимулирует развитие предприятий «Деловое совершенство» №9.2006; Траут Дж., Райс Э. Маркетинговые войны. Новое издание. – СПб.: Питер, 2021 – 288с.

bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar<sup>5</sup>. Boshqa bir guruh olimlar E.A.Knyazev, Ya.Sh.Evdokimova, A.M.Chernopyatov, E.A.Mixaylova, M.R.Mixaylova, Yu.N.Solovyeva va boshqalar avtomobilsozlik korxonalarida innovatsion marketingni tashkil etish va benchmarking asosida raqobatbardoshlikni oshirishning amaliy jihatlarini tadqiq etganlar<sup>6</sup>.

O'zbekistonda sanoat korxonalari marketing faoliyatida benchmarking usullaridan foydalanishning umumiy jihatlari A.Sh.Bekmurodov, M.R.Boltabaev, M.A.Ikramov, A.Soliyev, A.A.Fattaxov, M.A.Yusupov, M.S.Qosimova, Sh.Dj.Ergashxodjayeve, K.A.Sharipov, O.S.Kadirova, T.A.Akramov, L.Boboyev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan<sup>7</sup>.

Biroq yuqoridagi ilmiy izlanishlarda benchmarking asosida mahalliy avtomobil sanoati korxonalarining raqobatbardoshlik darajasini oshirish muammolari chuqur o'rganilmagan. Bu holat mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi va tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Benchmarking asosida mahalliy avtomobilsozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish va samaradorligini aniqlashning dasturiy mahsulotini yaratish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** benchmarking asosida mahalliy avtomobil sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

<sup>5</sup> Гапоненко А.Л., Панкрусин А.П. Стратегическое управление: Учебник. – М.: Омега-Л, 2008. — 464 с.; Азоев Г.Л., Алешникова В.И. Токарев Б.Е. и др. Маркетинг: освоение профессии. – СПб.: Питер, 2018; Ансофф И. Стратегическое управление. – Москва: Экономика, 2009. – 331с.; Классики менеджмента (электрон ресурс). Веб сайт: <http://www.hrm.ru>; Голубков, Е.П. Маркетинг для профессионалов: практический курс: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / Е. П. Голубков. – Москва: Издательство «Юрайт», 2022. – 474 с.; Бахрамов Ю.М., Глухов В.В. финансовый менеджмент. Учебник для вузов. 2-е изд. Стандарт третьего поколения. – СПб.: Питер, 2011. – 496 с.

<sup>6</sup> Князев Е.А., Евдокимова Я.Ш. Бенчмаркинг для вузов: Учебно-методическое пособие. – М.: Университетская книга, Логос, 2006. – 208с.; Чернопятов, А. М. Бенчмаркинг: учебное пособие: [16+] / А. М. Чернопятов. – Москва; Берлин : Директ-Медиа, 2018. – 154 с.; Михайлова, Е.А. Основы бенчмаркинга / Е.А. Михайлова. – М.: Юристъ, 2002. – 109 с.; Михайлова, М. Р. Бенчмаркинг – универсальный инструмент управления качеством. М. Р. Михайлова // Методы менеджмента качества. – 2003. – №5. – С. 18–21.; Соловьева, Ю. Н. Конкурентные преимущества и бенчмаркинг: учебное пособие для бакалавриата и магистратуры / Ю. Н. Соловьева. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство «Юрайт», 2018. — 131 с.

<sup>7</sup> Бекмуродов А.Ш. ва бошқалар. Стратегик маркетинг: Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2010.; Болтабаев М.Р. Тўқимачилик саноатида маркетинг стратегияси. Монография. – Т.: Фан, 2004.; Солиев А. Маркетинг. – Т.: Молия ва иқтисод. 2009. – 395 б.; Фаттахов А.А. Стратегия маркетинга в оптовой торговле и пути повышения её эффективности. Монография. – Т.: Фан, 2005. 179 с.; Икромов М.А., Абдухалилова Л.Т., Набиева Н.М. Маркетинг тадқиқотлари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2017 – 145 б. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. – Т.: Iqtisodiyot, 2018. - 361 bet.; Ergashxodjaeva SH.Dj. Strategik marketing. Darslik. – Т.: Sano-standart, 2019. - 232 bet.; Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Д.. Автосаноат корхоналари маркетинг тизимини такомиллаштириш: Монография. – Т.: Iqtisodiyot, 2020. - 95 б.; Кадырова О.С. Разработка методики исследования рынка и прогнозирования объема производства легковых автомобилей (на примере автомобилестроения Узбекистана), автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Т., 2004; Акромов Т.А. Автомобиль саноати корхоналарида маркетинг стратегияларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Т., 2018.; Бобоев Л.Дж. Автодилер корхоналарида маркетинг стратегияларидан фойдаланишни такомиллаштириш (“LADA Uzbekistan” бренди мисолида) Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2022.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

avtomobil sanoatida benchmarkingdan foydalanishning nazariy jihatlarini tadqiq etish;

O'zbekiston avtomobil sanoatida benchmarkingdan foydalanish paradigmalarini o'rganish;

mahalliy avtomobil sanoati korxonalarida benchmarkingdan foydalanishning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida mamlakatimiz uchun mos jihatlarini taklif etish;

avtomobil sanoati korxonalarining marketing faoliyati tahlilini amalga oshirish;

O'zbekiston avtomobil bozorini segmentlashning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish;

avtomobil sanoati raqobatbardoshligini oshirishda benchmarking usulidan foydalanishning ekonometrik tahlilini o'tkazish;

benchmarking asosida mahalliy avtomobil sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish;

avtomobil sanoatida benchmarkingni amalga oshirishda qarorlar qabul qilish usullarini taklif etish;

O'zbekiston avtomobil sanoatini 2030-yilgacha rivojlanish prognoz ssenariylarini ishlab chiqish;

benchmarking asosida mahalliy avtomobil sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida «O'zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyatining marketing faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** benchmarking asosida mahalliy avtomobil sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish jarayonida yuzaga keluvchi tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida statistik kuzatish, so'rovnoma, ekspert baholash, klaster tahlil, so'rovnoma, korrelyasion-regression tahlil, tizimli tahlil va benchmarking usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra «benchmarking» tushunchasining mazmuni korxonaning mijozlar bilan ishlash jarayonlarini optimallashtirish maqsadida bozor faoliyati ko'rsatkichlarini izlash, taqqoslash, eksperiment, sintez va baholash orqali raqobatchilar tajribasidan korxonalar amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan usul va usullar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

benchmarking asosida raqobatbardoshlik qobiliyatini eksport, ishlab chiqarish va sotish bo'yicha to'plangan marketing ma'lumotlariga ko'ra avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarni «o'rganish» ( $K_i=68,3\%$ ), «tekshirish» ( $K_t=31,7\%$ ) va «qo'llash» ( $K_q=10,1\%$ ) mezonlariga ko'ra benchmarkingli guruhlash asosida optimal qaror qabul qilish taklifi asoslangan;

marketing tadqiqotlari samaradorligini ta'minlashda «UzAuto Motors» AJ huzurida «Benchmarking markazi» faoliyatini tashkil etish orqali mahalliy avtomobil sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish taklifi asoslangan;

O'zbekiston avtomobil bozorining ishlab chiqarish, eksport va sotish omillarining o'zaro bog'liq ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar mahalliy avtomobil sanoati rivojlanishining prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mahalliy avtomobilsozlik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda benchmarkingdan foydalanishning zarurligi asoslab berilgan;

avtomobilsozlik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda benchmarkingdan foydalanish konsepsiyasi taklif etilgan;

mahalliy avtomobil sanoati korxonasi mahsulotlarining eksportga yo'naltirilganligi, ichki va tashqi bozordagi narx siyosati asoslab berilgan;

birlamchi va ikkilamchi avtomobil bozoridagi yutuq va kamchiliklar retrospektiv tahlili asosida aniqlangan;

xaridorlar psixologiyasini o'rganish orqali benchmarking jarayoni modeli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, «O'zavtosanoat» AJ, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarining rasmiy manbalaridan olinganligi, korxonalarining statistik hisobotlari hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston Respublikasida avtomobil sanoati korxonalarining benchmarking asosida raqobatbardoshligini oshirish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish va avtomobil sanoati korxonalarini rivojlantirish bo'yicha marketing strategiyalarini ishlab chiqishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan respublikada avtomobil sanoati korxonalarining benchmarking asosida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan «Marketing», «Strategik marketing» fanlaridan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Benchmarking asosida mahalliy avtomobil sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra «benchmarking» tushunchasining mazmuni korxonaning mijozlar bilan ishlash jarayonlarini optimallashtirish maqsadida bozor faoliyati ko'rsatkichlarini izlash, taqqoslash, eksperiment, sintez va baholash orqali raqobatchilar tajribasidan korxonalar amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan usul va usullar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurti Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan «Marketing» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (TDIU rektorining 2023-yil 21-dekabrda 387-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, o'quv adabiyotining 387-02-son nashr ruxsatnomasi);

benchmarking asosida raqobatbardoshlik qobiliyatini eksport, ishlab chiqarish va sotish bo'yicha to'plangan marketing ma'lumotlariga ko'ra avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarni «o'rganish» ( $K_i=68,3\%$ ), «tekshirish» ( $K_t=31,7\%$ ) va «qo'llash» ( $K_q=10,1\%$ ) mezonlariga ko'ra benchmarkingli guruhlash asosida optimal qaror qabul qilish bo'yicha takliflar «O'zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyatining tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatiga joriy etilgan («O'zavtosanoat» AKning 2024-yil 5-martdagi 03/03-25-0300-son ma'lumotnomasi). Natijada, avtomobil sanoatida benchmarkingni tanlab olish «O'zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyatining raqobat muhitini shakllantirish va tashqi bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasini ishlab chiqishda qo'llanilgan;

marketing tadqiqotlari samaradorligini ta'minlashda «UzAuto Motors» AJ huzurida «Benchmarking markazi» faoliyatini tashkil etish orqali mahalliy avtomobil sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish taklifi «O'zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyatining tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatiga joriy etilgan («O'zavtosanoat» AKning 2024-yil 5-martdagi 03/03-25-0300-son ma'lumotnomasi). Natijada sanoat sohasida ilmiy yondashuvni kuchaytirish, mahsulot xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarishdagi muammolarni bartaraf etish, kerakli ko'nikmalarni mutaxassislarda shakllantirish, texnik va texnologik mustaqillikni kuchaytirish bilan birga avtomobil sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda qo'llanilgan;

O'zbekiston avtomobil bozorining ishlab chiqarish, eksport va sotish omillarining o'zaro bog'liq ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar mahalliy avtomobil sanoati rivojlanishining prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan («O'zavtosanoat» AKning 2024-yil 5-martdagi 03/03-25-0300-son ma'lumotnomasi). Natijada avtomobil bozorining 2030-yilgacha rivojlanish prognoz ssenariylari «O'zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar yo'l xaritasini shakllantirishda qo'llanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar 1 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ish, O'zbekiston Respublikasining Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda hamda 6 ta mahalliy va xorijiy tezislar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 144 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib

berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Avtomobil sanoati korxonalarining benchmarking asosida raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida avtomobil sanoati raqobatbardoshligiga oid masalalar o'rganilgan. Avtomobil sanoatida benchmarkingdan foydalanishning nazariy jihatlari hamda bu boradagi ilg'or xorijiy tajribalari o'rganilgan va ulardan O'zbekiston avtomobilsozlik korxonalarida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan. Shuningdek, O'zbekiston avtomobil sanoatida benchmarkingdan foydalanish paradigmalari yoritib berilgan.

Raqobat iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyot va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi, bozor mexanizmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti o'z yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'iy nazar raqobatning mavjud bo'lishini taqozo etadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi.

Raqobat kurashi va uni harakatlantiruvchi kuchlar, monopoliyaga qarshi boshqaruv mexanizmlari haqida dastlabki to'laqonli nazariy qoidalar faqat XVIII asrning o'rtalariga kelib paydo bo'lgan. Bunda klassik siyosiy iqtisod vakillari hisoblangan A.Smit va D.Rikardoning xizmatlari kattadir. Keyingi davrlarda F.Perru, A.Marshall, Dj.Keyns, V.Leontev, Y.Shumpeter, P.Sraffa, M.Porter, F.Kotler va boshqalarning mehnatlari tufayli raqobat nazariyasi yanada rivoj topdi. Ilmiy nazariyalarni o'rganish asosida raqobatning mohiyati asosan uch xil yondashuvga ko'ra tizimlashtirilgan. Jumladan, xulq-atvor yondashuvi, tizimli yondashuv va funksional yondashuv. Bunday yondashuvlar asosida shakllangan va raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilgan barcha shakllarda benchmarking amal qilib, raqobatning har bir shaklida undan foydalanish korxonalar uchun eng muhim tadqiqot usullari sifatida o'rganilgan.

Benchmarking ilk bor 1972-yilda AQShda paydo bo'lgan. Unda PIMS (Profit Impact of Marketing Strategies / Marketing strategiyasiga hamda daromadga ta'siri) bo'yicha izlanishlar olib boruvchi konsalting tashkiloti raqobatbardoshlik sohasida eng samarali yechimni topa olgan korxonalarining eng yaxshi tajribasini bilish va ularni qo'llash kerak degan g'oyani ilgari surgan.

Benchmarking raqobatbardoshlikni qiyosiy baholash (competitive benchmarking), yuqori standartlarga erisha olganlar bilan o'z mahsuloti sifatini taqqoslash jarayonidir. «Sifat» va «raqobatbardoshlik» tushunchalari o'zaro bevosita bog'liq. Raqobatbardoshlik bu ma'lum bozorda taqdim etilgan o'xshash obektlarga nisbatan har bir ehtiyojning qondirilish darajasini tavsiflovchi obektlarning xususiyati, ya'ni tovarning bozor talablariga javob bera olish qobiliyatidir. Bozorda tovar raqobatbardoshligi narx va narxsiz vositalar orqali belgilanadi. Bu esa, benchmarkingning turli shakllarda namoyon bo'lishini anglatali. Jumladan, X.Xarington benchmarkingning 5 turi (ichki, tashqi raqobatbardosh, tashqi tarmoq ichidagi, tashqi tarmoqlararo, birlashtirilgan (tarmoqlararo va tashqi) turlari) mavjudligini ta'kidlaydi.

Ya.Sh.Yevdokimova esa benchmarkingning 4 ta asosiy turini, jumladan ichki, raqobatli, funksional yoki tarmoqlararo, etalon turlarini ajratadi. Umuman, benchmarking doimiy biznes o‘lchovi va yetakchi tashkilotning ma’lumotni to‘plash bo‘yicha raqobatchi korxonalar bilan taqqoslash sifatida ko‘rib chiqilishi va korxonalarining bozor faoliyatini takomillashtirish maqsadini aniqlash va faoliyatini yaxshilashga yordam beruvchi vosita sifatida o‘rganishi lozim.

O‘rganilgan ilmiy nazariy yondashuvlardan kelib chiqqan holda uslubiy yondashuvga ko‘ra «benchmarking» tushunchasi «korxonaning mijozlar bilan ishlash jarayonlarini optimallashtirish maqsadida bozor faoliyati ko‘rsatkichlarini izlash, taqqoslash, eksperiment, sintez va baholash orqali raqobatchilar tajribasidan korxonalar amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan usul va usullar majmui» nuqtai nazaridan o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

1-jadvalda benchmarking asosida mahalliy avtomobilsozlik sanoatining raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirishda ma’lumotlarning shakllanish mezonlari tizimlashtirilgan. Korxonada tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun shakllantirilayotgan va taqdim etilayotgan ma’lumotlar tizimi ana shu keltirilgan barcha talablarning qanchalik qismiga javob berayotganligi, qoniqtirganligini doimo baholab borish va faoliyatga o‘zgarishini kuzatib turish lozim.

### 1-jadval

#### **Benchmarking asosida mahalliy avtomobilsozlik sanoatining raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirishda ma’lumotlarining shakllanish mezonlari<sup>8</sup>**

| <b>№</b> | <b>Mezonlar</b> | <b>Mazmuni</b>                                                                                                                                |
|----------|-----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.       | Qisqalik        | Ma’lumot aniq va qisqa bo‘lib, ortiqcha narsalarga ega bo‘lmasligi kerak                                                                      |
| 2.       | Aniqlik         | Foydalanuvchi ma’lumot xato va kamchiliklarga ega emasligiga ishonch hosil qilishi va ma’lumot har qanday almashishlardan xoli bo‘lishi lozim |
| 3.       | Tezkorlik       | Ma’lumot zarur, ya’ni kerak bo‘lgan vaqtda tayyor bo‘lishi lozim                                                                              |
| 4.       | Mos kelishlik   | Ma’lumot vaqt va bo‘limlar bo‘yicha mos kelishi lozim                                                                                         |
| 5.       | Maqsadlilik     | Ma’lumot qanday maqsad uchun tayyorlangan bo‘lsa, shunga to‘g‘ri kelishi kerak                                                                |
| 6.       | Rentabellik     | Ma’lumotning tayyorlanishi undan foydalanish natijasida keluvchi foydasidan qimmatga tushib ketmasligi kerak                                  |
| 7.       | Noan’anaviylik  | Ma’lumot taxminlardan xoli tarzda tayyorlanishi va taqdim etilishi lozim                                                                      |
| 8.       | Manzillilik     | Konfidensiallik saqlangan holda ma’lumot ma’sul bajaruvchigacha yetkazilishi kerak                                                            |
| 9.       | Raqamlilik      | Korxonada ma’lumotlar bazasi raqamlashtirilishi va benchmarking usullari avtomatlashtirilishi lozim                                           |

Agar 1-jadvalda berilgan mezonlardan kamida 3 tasi bo‘yicha korxonalar ijobiy xarakteristikaga ega bo‘lmasa, mazkur korxonada boshqaruv tizimini qayta tashkil

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi.

etilishi lozim. Avtomobilsozlik korxonalari o‘z mahsulotlari narxi, sifati bilan jahon bozori yetakchilari bilan raqobatlasha olish qobiliyatiga ega bo‘lsagina, ushbu tarmoq barqaror rivojlanadi.

Har bir korxonada marketing innovatsiyalarini shakllantirishning asosiy maqsadi barqaror raqobatbardoshlikni ta‘minlashdan iborat. Marketing innovatsiyarini shakllantirish hisobiga avtomobil sanoati korxonasi barqaror raqobatbardoshligini uslubiy jihatdan ta‘minlash tizimlarni tashkil etish qonunlari, ilmiy tamoyillar, ustuvor va yondashuvlarga asoslanishi kerak. Dissertatsiyada O‘zbekiston avtomobil sanoatida benchmarkingdan foydalanish holati tahlil qilingan.

Statsitik ma‘lumotlarga ko‘ra, jahonda 2022-yilda jami 85,1 mln. dona avtomobil ishlab chiqarilgan bo‘lib, shu ishlab chiqarish hajmlariga ko‘ra eng yirik 5 ta davlat – Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya, Hindiston va Janubiy Koreya hisoblanadi. Xitoy 2022-yilda 27 milliarddan ortiq avtomobil ishlab chiqargan, 2021-yilda esa 26,1 million dona avtomobil ishlab chiqargan bo‘lib, yalpi ichki mahsuloti 17,7 trillion dollarni tashkil etgan, bu 2020-yilga nisbatan 8,1 %ga oshgan. YAIMning 10 %i avtomobil sanoatidan ta‘minlanadi, bu esa 1,77 trillion dollarni tashkil etgan (2-jadval).

## 2-jadval

### 2016-2023-yillarda jahonning yetakchi mamlakatlarida ishlab chiqarilgan avtomobillar, ming dona<sup>9</sup>

| Mamlakat       | 2016-y. | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. |
|----------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Xitoy          | 28.118  | 29.015  | 27.809  | 25.721  | 25.225  | 26.082  | 27.021  | 30.160  |
| AQSh           | 12.198  | 11.190  | 11.314  | 10.880  | 8.823   | 9.167   | 10.060  | 10.161  |
| Yaponiya       | 9.204   | 9.693   | 9.728   | 9.684   | 8.067   | 7.847   | 7.835   | 8.997   |
| Hindiston      | 4.519   | 4.782   | 5.175   | 4.516   | 3.490   | 4.399   | 5.456   | 5.851   |
| Janubiy Koreya | 4.228   | 4.135   | 4.028   | 3.951   | 3.506   | 3.462   | 3.757   | 4.244   |
| Germaniya      | 5.746   | 5.645   | 5.120   | 4.661   | 3.742   | 3.308   | 3.677   | 4.109   |
| Meksika        | 4.396   | 4.137   | 4.101   | 3.986   | 3.176   | 3.145   | 3.509   | 4.002   |
| Braziliya      | 2.156   | 2.699   | 2.879   | 2.945   | 2.014   | 2.248   | 2.369   | 2.325   |
| Ispaniya       | 2.886   | 2.848   | 2.819   | 2.822   | 2.268   | 2.098   | 2.219   | 2.451   |
| Tayland        | 1.944   | 1.988   | 2.167   | 2.013   | 1.427   | 1.685   | 1.883   | 1.842   |

AQShda 2023-yilda 10,1 million dona yengil, yo‘ltanlamas va yengil tijorat avtomobillari ishlab chiqarilgan. Uning YaIMi 2021-yilda 23 trln. dollarni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 10,1 %ga oshgan. YaIMning 3 %i avtomobil sanoatiga to‘g‘ri kelib, 690 mlrd.dollarni tashkil etgan. Mazkur tarmoqda ishlovchi xodimlar soni 2022-yilga 1,7 million kishini tashkil etgan.

Yaponiya 2023-yilda esa 8,9 mln. avtomobil ishlab chiqargan bo‘lib, 2022-yilda qiymati 5,1 trln. dollarga teng jami 7,8 mln. donani tashkil etgan. 2021-yilda Yaponiyaning YaIMi hajmi 510 mlrd. dollarga teng bo‘lgan. Xitoy avtomobil

<sup>9</sup> OICA statistik ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan. <https://www.oica.net/category/production-statistics/2023-statistics>

sanoatining YaIM ulushi 10 foizni tashkil etib, mazkur tarmoqla jami 5,9 mln. nafar xodim faoliyat yuritadi.

Hindiston avtomobil sanoati 15 yil avval boshlangan bo'lsa-da, uning 2023-yilgi ishlab chiqarish hajmi 5,8 mln donani tashkil etgan. 2021-yil ma'lumotlariga ko'ra, Xindistonda YaIMning 7,1 %i avtomobil sanoatiga tegishli bo'lib, 202,35 mlrd. dollarni tashkil etgan va mazkur tarmoqda qariyb 2,72 mln. nafar xodim faoliyat yuritgan.

Janubiy Koreyada 2023-yil 4,2 mln. dona avtomobil ishlab chiqarildi. 2021-yil davomida 3,5 milliondan ortiq avtomobil ishlab chiqargan bo'lib, uning 60 %i eksportga chiqqan. YaIMning o'zi 2021-yilda 1,7 trln dollarni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 4 %ga oshdi. Avtomobil sanoati YaIMning 10 %ni tashkil qilgan.

Kearney konsalting korxonasi mutaxassislarining fikricha, jahonda avtomobillar davlatni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi vazifasini bajaradi. Yirik avtozavodlar atrofida dastlabki uskunalari uchun tarkibiy qismlar ishlab chiqaruvchilari, xomashyoni qayta ishlash korxonalari, xizmat ko'rsatish nuqtalari hamda transport xizmatlari yetkazib beruvchilardan iborat sanoat klasterlari shakllanadi. Ular infrastrukturani rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

O'zbekiston 2023-yil 425876 dona avtomobil ishlab chiqargan, avtomobil sanoati yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2017-yildagi 0,6 %dan 2022-yilda 1,1 %ga, jami sanoat mahsulotidagi ulushi 2017-yildagi 2,8 %dan 2022-yilda 4 %ga o'sgan. 2017-yilda bu sohada o'rtacha 23,5 ming nafarga yaqin kishi ish bilan ta'minlangan bo'lsa, 2022-yilga kelib, bu ko'rsatkich 24,3 %ga o'sib, 29,2 ming kishiga yetgan. 2017-2022-yillarda avtomobil ishlab chiqarish hajmi 2,3 baravarga oshgan. Jahon avtomobil bozorining rivojlanish tendensiyalari tahlillaridan ma'lum bo'ladiki, mazkur tarmoq mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va boshqa sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi uchun multiplikator vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning **«O'zbekistonda avtomobil sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda benchmarkingdan foydalanish holati tahlili»** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda avtomobilsozlikning rivojlanishi tahlili amalga oshirilgan, mamlakatimiz avtomobil sanoatining marketing faoliyati tahlil qilingan. O'zbekiston avtomobil bozorining segment xususiyatlari benchmarking tahlillaridan foydalanish asosida aniqlangan.

O'zbekistonda avtomobil sanoatini rivojlantirish bo'yicha qariyb 25 yildan ortiq tajriba mavjud. Mazkur tarmoq O'zbekiston uchun yuqori daraja rivojlangan va jahon bozorida munosib ulushga ega sanoat tarmog'i sifatida o'rganiladi. O'zbekistonda «General Motors Uzbekistan» kompaniyasida zamonaviy standartlarga javob beruvchi, qulayligi, xavfsizligi, ishonchliligi va tejamkorligi bilan dunyo bo'yicha raqobatlasha oluvchi yengil avtomobillar ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, Samarqanddagi «SamAvto» zavodida tayyorlanayotgan «ISUZU» rusumli avtobuslar, yuk avtomobillari, ixtisoslashtirilgan transport vositalari – avtofurgon, suv va chiqindi tashish mashinalari, avtominoralar, evakuatorlar ishlab chiqaradi va ichki bozorni ishonchli, foydalanish uchun qulay avtomobillar bilan ta'minlaydi.

Avtomobil sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i sifatida 2018-yilda jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 26,821 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 49,480 trln. so'mni tashkil etgan. «O'zavtosanoat» AJ

tomonidan 2018-yilda jami 220,7 ming dona avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2021-yilda 236,6 ming dona, 2022-yilda 328,1 ming dona, 2023-yilda esa 425,8 ming donani tashkil etgan. O'zbekiston Markaziy Osiyoda yo'lovchi va tijorat transport vositalarining to'liq assortimentini ishlab chiqaruvchi yetakchi mamlakat hisoblanadi. «O'zavtosanoat» AJ tarkibida 2022-yil yakunlari bo'yicha 70 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda va mazkur soha bo'yicha 200 dan ortiq xorijiy korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlik mavjud (3-jadval).

### 3-jadval

#### «O'zavtosanoat» AJning asosiy faoliyat ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumot<sup>10</sup>

| Ko'rsatkichlar                                      | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2018-yilga nisbatan 2022-yildagi farqi (+,-) | 2021-yilga nisbatan 2022-yildagi farqi (+,-) |
|-----------------------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------------------------------------------|----------------------------------------------|
| <b>Tarkibdagi korxonalar soni (dona)</b>            | 73       | 75       | 74       | 72       | 72       | - 1                                          | -                                            |
| <b>shu jumladan sanoat korxonalari (dona)</b>       | 33       | 31       | 33       | 34       | 34       | 1                                            | -                                            |
| <b>Ishlab chiqarish hajmi (trln.so'm)</b>           | 26,821   | 33,534   | 34,052   | 31,185   | 49,480   | 45,7                                         | 37                                           |
| <b>O'sish sur'ati, %</b>                            | 172,5    | 122,0    | 95,8     | 89,1     | 144,5    | -28                                          | 55,4                                         |
| <i>Asosiy ishlab chiqarish mahsulot turlari:</i>    |          |          |          |          |          |                                              |                                              |
| <b>Yengil avtomobillar (ming dona)</b>              | 220,7    | 271,1    | 280,1    | 236,6    | 328,1    | 107,4                                        | 91,5                                         |
| <b>Avtobuslar (dona)</b>                            | 949      | 1534     | 642      | 1003     | 1357     | 408                                          | 354                                          |
| <b>Yuk avtomobillari (ming dona)</b>                | 3,9      | 5,3      | 4,1      | 4,5      | 4,1      | 0,2                                          | -0,4                                         |
| <b>Kuch agregatlari (ming dona)</b>                 | 158,8    | 200,6    | 222,4    | 160,4    | 225,4    | 66,6                                         | 65                                           |
| <b>Halq iste'mol mahsulotlari hajmi (mlrd.so'm)</b> | 18.442   | 24.251   | 23.286   | 20.440   | 33.604   | 15.162                                       | 13.164                                       |
| <b>O'sish sur'ati, %</b>                            | 191,1    | 131,5    | 96,0     | 85,9     | 144,8    | -46,3                                        | 58,9                                         |

<sup>10</sup> «O'zavtosanoat» AJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi [www.uzavtosanoat.uz](http://www.uzavtosanoat.uz)

Avtomobil sanoatini rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga erishish faol investitsiya siyosatini yuritishni taqozo etadi. Tarmoqqa 2017-2022-yillarda jami 714 million dollarlik investitsiyalar kiritilgan. Mazkur investitsion loyihalarni amalga oshirish natijasida 2019-yilda yangi tundagi ISUZU D-Max pikapi va yuk mashinasi, MAN TGS 40440 samosvalini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, chuqur diversifikatsiyalash asosida 2022-yilda esa Chevrolet Tracker-2023 avtomobili va CSS Prime turbodvigatellarini ishlab chiqarish boshlangan.

O'zbekistonda boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning uslubiy asoslarini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilgan. Mamlakatda avtomobilsozlik tizimini xalqaro standartlar asosida yuritish va moslashtirish vazifasi qo'yilgan.

«O'zavtosanoat» AJning 2018-yilda ishlab chiqarish hajmi yengil avtomobillar 220667 dona, yuk mashinalari 3986 dona, avtobuslar 949 dona, traktorlar 3926 dona va maxsus transport vositalari 654 donani tashkil etgan. Ishlab chiqarish hajmi 26,8 trln. so'mni tashkil etgan, bu esa 2022-yilga kelib, 49,4 trln.so'mni tashkil etdi, ya'ni 54 %ga oshdi. 2018-yilda bu ko'rsatkich faqat yengil avtomashina ishlab chiqarishda 42 %ni tashkil etmoqda. Qolgan holatlarda, avtobuslar va yuk mashinalarini ishlab chiqarishda bu ko'rsatkich 15 %dan oshmagan. 2021-yilga kelib, yengil avtomobillar 74,2 %ni, yuk mashina va avtobuslar 43 %ni tashkil etgan (4-jadval).

#### 4-jadval

#### O'zbekistonda avtomobil turlarini ishlab chiqarish hajmi<sup>11</sup>

| Yillar | Yengil avtomobillar (dona) | Yuk mashinalari (dona) | Avtobuslar (dona) | Traktorlar (dona) | Maxsus transport vositalari (dona) | Ishlab chiqarish hajmi trln.so'm |
|--------|----------------------------|------------------------|-------------------|-------------------|------------------------------------|----------------------------------|
| 2017   | 140 247                    | 3 242                  | 1 057             | 1 182             | 720                                | 10,792                           |
| 2018   | 220 667                    | 3 986                  | 949               | 3 926             | 654                                | 26,821                           |
| 2019   | 271 113                    | 5 361                  | 1 534             | 2 257             | 403                                | 33,534                           |
| 2020   | 280 080                    | 4 163                  | 642               | 673               | 41                                 | 34,052                           |
| 2021   | 236 667                    | 3 979                  | 1 003             | 213               | 60                                 | 31,185                           |
| 2022   | 328 118                    | 4 100                  | 1357              | 225               | 75                                 | 49,480                           |

Tahlil natijalaridan ma'lumki, ichki bozorda avtomobilga talabning o'tgan yillarga nisbatan pasayganligi hamda xalqaro bozorlardagi beqarorlik va raqobatlashuvning kuchayganligi bilan izohlash mumkin. Shu bois, avtomobil sanoatida innovatsion marketing strategiyalarini shakllantirish va amaliyotga joriy etish, benchmarking asosida yetakchi avtosanoat korxonalarini tajribasini o'rganishni kuchaytirish lozim.

Avtomobil sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun marketing tadqiqotlaridan foydalanish zarurati mavjud. Bunda klaster

<sup>11</sup> «O'zavtosanoat» AJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi [www.uzavtosanoat.uz](http://www.uzavtosanoat.uz)

tahlil usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Klaster tahlili – statistik usullar katta to‘plamining umumiy nomi bo‘lib, ular obyektlar namunasidagi guruhlarini aniqlashga qaratilgan, bu guruhlar odatda klasterlar deb ataladi.

Jahonning 40 dan ortiq mamlakatlarida avtomobil ishlab chiqariladi va ularning ishlab chiqarish usuli, eksporti, savdosi va qo‘llaniladigan marketing strategiyalarida turlichadir. Klaster tahlilni o‘tkazishdan maqsad, jahonning avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarini o‘xshash xususiyatlar bo‘yicha turli guruhlarga ajratish va ularning tajribalaridan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini belgilashdir. Tadqiqot uchun avtomobil ishlab chiqarish sanoati mavjud bo‘lgan 40 ta mamlakatning quyidagi ko‘rsatkichlari bo‘yicha klaster tahlil amalga oshirilgan:

- avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning avtomobil eksporti ko‘rsatkichlari;

- eksport ko‘rsatkichlari indikatorlari, jahon eksportidagi ulushi va u ulushning oshib borishi;

- ishlab chiqarish omillarining namoyon bo‘lishi kabi ko‘rsatkichlar.

Klaster tahlilni amalga oshirish uchun ma‘lum bir uslubni tanlash talab etiladi. Klasterlash usullarini boshqalar qatori ular ishlab chiqaruvchi natijalarni turiga qarab tavsiflash mumkin, tadqiqotda esa iyerarxik klasterlash usulidan foydalanilgan. Iyerarxik klasterlash har bir obyektning xususiyatlari bo‘yicha tegishli qiymatlari asosida iyerarxik joylashtirish imkonini beradi. Guruhlashda obyektlar o‘rtasidagi masofani o‘lchashda eng keng qo‘llaniluvchi usul sifatida Evklid masofasi usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu har bir obyektning tegishli omillar bo‘yicha qabul qilingan qiymatlar o‘lchoviga ko‘ra yaqin masofani hisoblash va eng yaqin nuqtalarni belgilash orqali amalga oshiriladi.

Tanlangan omillar bo‘yicha avtomobil ishlab chiqarish sotish va eksport faoliyati bo‘yicha ko‘rsatkichlar (<https://www.oica.net/>) hamda jahon savdo tashkilotining rasmiy statistik portallari (<https://www.trademap.org/>) orqali yig‘ilgan va SPSS Statistical paket dasturi asosida qayta ishlangan. Benchmarking asosida raqobatbardoshlik qobiliyatini eksport, ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha to‘plangan marketing ma‘lumotlariga ko‘ra avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarni «o‘rganish», «tekshirish» va «qo‘llash» mezonlariga ko‘ra benchmarking guruhlash amalga oshirilgan.

Uord usuli bo‘yicha 4 ta omilga ko‘ra klasterlashning aglomeratsiya natijalarida statistik jihadan ahamiyatsiz bo‘lgan ikkita omil chiqarilgan. Qolgan ikkita omil bilan amalga oshirilgan klaster tahlil natijalari avtomobil sanoatida benchmarking uchun jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning 2 ta asosiy katta guruhga ajratish imkonini bergan. Jumladan O‘zbekiston avtomobil sanoati uchun jami 41 ta mamlakatdan 13 tasi, ya‘ni 31,7 foizini doimiy tekshirib borish va taqqoslash lozim. Keyingi mamlakatlar guruhi esa 28 (68,3 foizni)tani tashkil etib, bu mamlakatlar tajribasi doimo o‘rganilishi lozim. Amalga oshirilgan klaster tahlil natijalari O‘zbekiston avtomobil sanoati marketing faoliyatida samarali tajribasidan foydalanish imkonini beruvchi 4 ta (10,1 foiz) mamlakat aniqlangan bo‘lib, ular Germaniya, AQSh, Xitoy, Yaponiya hisoblanadi (5-jadval).

**Eksport, eksport koeffitsiyenti, sotish va ishlab chiqarish omillari bo'yicha klaster guruhlariga ajratish natijalari<sup>12</sup>**

| Klaster guruhlar  | N  | Foizda | Mamlakatlar                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|-------------------|----|--------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
